



THE CHAHAR BAGH TRADITION AND THE DEVELOPMENT OF GARDEN ARCHITECTURE DURING THE TIMURID PERIOD

Muhriddin Xolov

Independent Researcher, Faculty of History

Fergana State University

E-mail: xolovmuhriddin41@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Shahrukh Mirza, Sultan Barsbay, Saripuli Sangkashon, Childuxtaron, Qushtegirmon, Bagh-i Bihisht, Takhta Qarocho, Amir Chaqmaq, Herat, yasaq, kabapush.

Received: 21.06.26

Accepted: 22.06.26

Published: 23.06.26

Abstract: The Timurid dynasty was one of the most influential dynasties in the history of Central Asia, making significant contributions to the development of science, architecture, and art. Alongside the palaces, madrasas, and mausoleums constructed by its rulers, gardens occupied a special place in Timurid cultural heritage. The Timurid sovereigns paid great attention to the beauty of nature and commissioned magnificent gardens around major cities. These gardens served not only as places of recreation but also as venues for state ceremonies, scholarly discussions, and cultural events. During the Timurid period, gardens were generally designed according to the traditional Persian-Islamic “Chahar Bagh” (four-part garden) layout. They were typically divided into four sections, intersected by canals, streams, or pools. Fruit trees, colorful flowers, and shaded pathways constituted the main features of these gardens.

TEMURIYLAR DAVRIDA CHORBOG‘ AN‘ANASI VA BOG‘ ME‘MORCHILIGINING RIVOJLANISHI

Muhriddin Xolov

FDU Tarix fakulteti mustaqil izlanuvchisi

e-mail: xolovmuhriddin41@gmail.com

Farg‘ona, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Shohrux Mirzo, Sulton Barsboy, Saripuli Sangkashon, Childuxtaron, Qoʻshtegirmon, Bogʻi Bihisht, Taxta Qarocho, Amir Chaqmoq, Hirot, yasoq, kabapoʻsh.

Annotatsiya: Temuriylar sulolasi Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan, meʼmorilik va sanʼat rivojiga ulkan hissa qoʻshgan sulolalardan biridir. Bu sulola vakillari tomonidan qurilgan saroylar, madrasa va maqbaralar qatorida bogʻlar ham alohida oʻrin tutadi. Temuriy hukmdorlar tabiat goʻzalligiga katta eʼtibor qaratib, shaharlar atrofida muhtasham bogʻlar barpo ettirganlar. Ushbu bogʻlar dam olish maskani boʻlish bilan birga, davlat marosimlari, ilmiy suhbatlar va madaniy tadbirlar oʻtkaziladigan maskan vazifasini ham bajargan. Temuriylar davrida bogʻlar sharqona “chorbogʻ” usulida qurilgan. Bogʻlar odatda toʻrt qismga boʻlinib, oʻrtasidan ariqlar yoki hovuzlar oʻtkazilgan. Mevali daraxtlar, rang-barang gullar va salqin xiyobonlar bogʻlarning asosiy qismini tashkil etgan.

ТРАДИЦИЯ ЧАРБАГА И РАЗВИТИЕ САДОВО-ПАРКОВОЙ АРХИТЕКТУРЫ В ЭПОХУ ТИМУРИДОВ

Мухриддин Холов

Независимый соискатель исторического факультета

Ферганского государственного университета

E-mail: xolovmuhridin41@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Шахрух Мирза, султан Барсбай, Сарипули Сангашон, Чилдухтарон, Куштегирмон, Баги Бишишт, Тахта Карача, Амир Чакмак, Герат, ясак, кабапуш.

Аннотация: Династия Тимуридов является одной из династий, внесших значительный вклад в развитие науки, архитектуры и искусства в истории Центральной Азии. Наряду с дворцами, медресе и мавзолеями, построенными представителями этой династии, особое место занимали сады. Правители Тимуридов уделяли большое внимание красоте природы и создавали вокруг городов великолепные садово-парковые комплексы. Эти сады служили не только местом отдыха, но и площадками для проведения государственных церемоний, научных бесед и культурных мероприятий. В эпоху Тимуридов сады создавались в традиционном восточном стиле «чарбаг». Обычно они делились на четыре части, через которые проходили арыки или

располагались бассейны. Основную часть садов составляли плодовые деревья, разнообразные цветы и тенистые аллеи.

Kirish. Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan, me'morchilik va madaniyatning yuksalgan davri sifatida alohida o'rin tutadi. XIV–XV asrlarda Amir Temur va uning avlodlari tomonidan bunyod etilgan shaharlar, saroylar, madrasalar bilan bir qatorda bog'lar ham o'sha davrning yuksak estetik didi va tabiatga bo'lgan munosabatini namoyon etgan. Temuriy hukmdorlar uchun bog'lar nafaqat dam olish maskani, balki davlat qudrati, ma'naviy uyg'onish va san'atning timsoli hisoblangan. Ayniqsa, Samarqand, Hirot va Shahrisabz kabi shaharlarda barpo etilgan bog'lar o'zining me'moriy yechimi, suv inshootlari, manzarali daraxtlari va geometrik tartibi bilan Sharq bog'dorchilik san'atining noyob namunalariga aylangan. Bu bog'larda tabiat va me'morchilik uyg'unligi mujassam bo'lib, ular saroy hayoti, ilmiy suhbatlar va adabiy anjumanlarning muhim markazi vazifasini bajargan.

Temuriylar yaratgan bog'lar keyingi davr Sharq va hatto Hindiston bog'sozlik madaniyatiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan Hindistonda bunyod etilgan bog'larda Temuriylar an'analari davom ettirilganini ko'rish mumkin. Shu bois Temuriylar davridagi bog'larni o'rganish nafaqat tarixiy-me'moriy merosni anglash, balki o'sha davrning madaniy va estetik qarashlarini tahlil qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada Temuriy sulolasi vakillari tomonidan bunyod etilgan bog'larning tarixiy ahamiyati, me'moriy xususiyatlari hamda ularning Sharq madaniyatidagi o'rni haqida so'z yuritiladi.

Materiallar va metodlar. G.A.Pugachenkovaning Amir Temur va temuriylar davri madaniyatiga oid tadqiqotlari salomoqlidir. Olimaning "Temur va temuriylar davrida O'rta Osiyoda bog'dorchilik san'ati" asarida Movaraunnahr va Xurosonda barpo qilingan bog' va chorbog'lar, ularning tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Xususan, asarda Muhammad Jo'ki Mirzo, Badi'uzzamon Mirzo, Muzaffar Mirzo kabi shahzodalarning homiyligi bilan yaratilgan va qayta tiklangan bog'lar to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tgan. Shuningdek, Hirot shahridagi nihoyatda xushmanzara sayilgoh bo'lgan "Saripuli Sangkashon" haqida so'z yuritar ekan, bu yerda katta bayramlar o'tkazilganligini ta'kidlagan.[1:149].

S.Azimjonovanning "К истории Ферганывторой половины XV в" asarida Farg'ona vodiysining Umarshayx Mirzo va Bobur Mirzo hukmronlik siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bayon qilingan.[2:92-93]. Asarda Umarshayx Mirzo davrida asosan chorbog' va ularda saroylar barpo qilinganini ta'kidlab, O'sh va Andijon oralig'ida tog' yaqinida joylashgan Childuxtaron va Qo'shtegirmon chorbog'lari tilga oladi. O'.Alimovning "O'rta asrlarda Movarounnahrda

bog‘dorchilik xo‘jaligi tarixi” asarida Amir Temur davrida yaratilgan bog‘ va chorbog‘lar, ularning o‘simlik va hayvonot dunyosi batafsil yoritilgan hamda masala bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan.[3:135]. H. Qudratullayevning “Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi” ham shahzodalarning homiyligi bilan bunyod qilingan inshootlar, ayniqsa, bog‘ va chorbog‘lar to‘g‘risida ayrim mulohazalar bildirilgan. Muallif temuriylar davrida Kobulda bunyod qilingan “Bog‘i Kalon”, “Bog‘i Navruziiy”, “Bog‘i Bihisht” va boshqa bog‘lar haqida qisqacha so‘z yuritgan. Biroq, Mirzo Ulug‘bek Kobuliy tomonidan Kobul shahri yaqinidagi Gulkina qishlog‘ida ariq qazdirganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotda yanglishliklar mavjud.[4:432]. Bobur Mirzo ushbu ariqni Mirzo Ulug‘bek Kobuliy saroyida xizmat qilgan Vays atka tomonidan qazdirilgani qayd etgan. Mirzo Ulug‘bek Kobuliy homiyligi bilan “Bog‘i Bihisht” bog‘i yaratilgani va uning nihoyatda xushmanzara ekanligini ta’kidlagan.

Unda Amir Temurning tashabbusi bilan yaratilgan “Bog‘i Bihisht”, “Taxta Qarocho” saroyi va undagi bog‘, Bog‘i Davlatobod, “Bog‘i Amirzoda Ulug‘bek” va boshqa bog‘lar haqida ma‘lumotlar berilgan. Asar o‘sha davrda bunyod qilingan shahar va qishloqlar, qayta tiklangan imoratlar haqida qimmatli ma‘lumotlarni taqdim qiladi. Masalan, 1391-yilda Chinoz yaqinida yangi qishloq bunyod etilgani haqidagi ma‘lumot shular jumlasidandir.[5:432].

Temuriylar davri tarixidan hikoya qiluvchi asarlardan biri Fasih Havofiyning “Mujmali Fasixiy” (“Temuriylar davrida Yazd shahri tarixidan hikoya qiluvchi “Tarixi jadidi Yazd” asari ham tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Asar XV asrning oxirida Ahmad ibn Husayn ibn Ali al-Kotib tomonidan “Tarixi Yazd” asariga tayanilgan holda yaratilgan. Ushbu asar tarixshunosigimizda deyarli o‘rganilmagan. Muallif temuriylar davrida Yazdda qurilgan me’moriy obidalar, ijtimoiy binolar, bog‘lar va chorbog‘lar bilan bog‘liq ma‘lumotlar uchraydi. Ularning aksariyati Shohrux Mirzo davrida bunyod qilingani e’tiborga molikdir. Hasanbey Rumlining fors tilida yozilgan “Ahsan at-tavorix” asarida ba’zi o‘rinlarda temurilar davri madaniyati to‘g‘risida ma‘lumotlar uchraydi. Asarda temuriylar davri 1405-1420-yillardagi voqealarda o‘z ichiga oladi. Muallif Shohrux Mirzo, Iskandar Mirzo va boshqa shahzodalarning tashabbusi bilan qurilgan ayrim binolar haqida qisqacha so‘z yuritgan.[6:86-87].

Muhokama va natija. Amir Temur va temuriylar bog‘dorchilik va ko‘kalamzorlashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, muallifi noma’lum bo‘lgan “Fann-i kishtu ziroat” asarida XV – XVI asarlarda bog‘ va ularni yaratish, o‘simlik va hayvonot dunyosi, parvarishiga doir ma‘lumotlar ham o‘z aksini topgan. Ibn Arabshohning yozishicha, Shihobuddin Ahmad az-Zardkashiy o‘sha davrning mahoratli bog‘bonlaridan bo‘lgan va uning loyihasi bilan ko‘plab xushmanzara bog‘lar yaratilgan.[7:87].

Ispan elchisi R.G.Klavixo o'zining "Kundalik"larida o'sha davr bog'dorchiligi haqida qimmatli ma'lumotlarni keltirib, Shahrisabzdan Samarqandgacha bo'lgan va uning atrofida joylashgan diqqatga sazovor bog'larni tavsiflagan. Bu davrda sulola vakillariga atab bog'lar yaratish urf bo'lganligi ma'lum. O'.Alimovning Sharafuddin Ali Yazdiyga tayanib yozishicha, 1394-yilda Samarqandda "Bog'i Amirzoda Shohrux" nomi bilan tanilgan bog' yaratilgan va u Shohrux Mirzoga tegishli bo'lgan.[3:20]. Bu bog' xususida ma'lumotlar juda kam uchraydi va uning joylashuvi ham bahslidir. Xususan, G.A.Pugachenkova u haqida so'z yuritar ekan, uning Shohrux Mirzoning Kavkaz ortidagi yurishlaridan qaytib kelishi munosabati bilan qurilgani aytib o'tgan bo'lsa-da, uning shaharning qayerida joylashganini ko'rsatmaydi.[1:143-147]. O'.Alimovning fikricha, uni Samarqandning g'arbiy qismida ekanligi haqida ma'lumotda chalkashlik mavjud, chunki, bu yerda "Bog'i Nav" joylashgan.

O'sha davrda barpo etilgan yirik bog'lardan biri "Bog'i shahr"dir. Fasih Xavofiyning qayd etishicha, Amir Temurning farmoni bilan 1399-yilning iyul oyi oxirlarida Shohrux Mirzo uchun Hirot shahrida "Bog'i shahr"ni barpo etish ishlari boshlangan va unga mas'ul qilib Milkat tavochi mas'ul qilib tayinlanga. Bernard O'kanening yozishicha, bu yer XV asr boshlarida Shohrux Mirzoning qarorgohi vazifasini bajargan. D.Yusupovning Xondamirga tayanib yozishicha, Shohrux Mirzo tomonidan "Bog'i Zog'on" va uning saroyi qayta ta'mirlangan va obodonchilik ishlari amalga oshirilgan. Xususan, uning 1405-yildan keyin amalga oshirilganini e'tibor qaratisa, shahzoda bir muddat "Bog'i shahr"da istiqomat qilgan bo'lishi kerak. Sulton Ahmad Mirzo ham Samarqandda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. H.Vamberi uning homiyligi bilan qurilgan ko'shk, bog'lar va chorbog'lar to'g'risida mulohaza yuritar ekan, uning bunyodkorlik faoliyatini yuqori baholaydi.[8:47]. Bu davrda bek va amirlar tomonidan ham chorbog'lar yaratish urf bo'lgan. Xususan, Sulton Ahmad Mirzo saroyida xizmat qilgan Darvesh Muhammad tarxon tomonidan Samarqandda chorbog' qurilgan. Bobur Mirzo chorbog'ni quyidagicha ta'riflaydi: "safoliq, havoliq va maddi nazarliq chorbog' kam bo'lg'ay. Bog'i maydondin quyiroq, balandining ustida Kulba o'langiga mushrif bir chorbog' solibtur, tamom bu o'lang oyog' ostidadur. Aybi budurkim, ulug' suyi yo'qtur". Bobur Mirzo keltirgan ma'lumotga tayanilsa, Bog'i Maydon yaqinida joylashgani va uning xushmanzara bo'lganligini ko'rsatadi.

Mirzo Ulug'bek Kobuliy ham o'zining yaratuvchanlik faoliyati bilan ajralib turadi. Kobul bunyod qilingan ko'plab bog' va chorbog'lar uning nomi bilan bog'liq. Xususan, "Bog'i Navruziy" shular jumlasidan. H. Qudratullayev ushbu bog'ni Mirzo Ulug'bek tomonida barpo qilingan deya yanglishadi. "Boburnomada" uning Mirzo Ulug'bek Kobuliyning homiyligi bilan yaratilgani va Kobul shahriga yaqin bo'lgan tog' yaqinida joylashganligi qayd etilgan.[9:141].

Bobur Mirzo Kobul viloyatining Istalifcha kentida shahzoda tomonidan “Bog‘i Kalon” nomli bog‘ yaratilgani haqida: “Rudning har ikki tarafi bog‘ottur, sabzaliq, safoliqqina bog‘chalari bordur, suyi sovuqtur, yaxobqa ehtiyoj bo‘lmas, aksar softur. Bu kentta Bog‘i Kalon oltiq Ulug‘bek mirzoning bir mansub bog‘i bor edi. Bog‘din tashqari ulug‘ chinorlar bor edi, chinorlarning tubi sabzaliq, safoliq manzildur. Bog‘ning o‘rtasidin bir tegirmon suyi hamisha joriydur”, -deb yozadi. Yuqoridagi ma‘lumotlar bog‘larning tuzilishi va o‘simlik dunyosi haqida tasavvur beradi. S.Azimjonova Bobur Mirzoning ushbu bog‘ni sotib olganligi va “Bog‘i Kalon”dan o‘tgan ariqni qayta qazdirganligini ta‘kidlagan.

S.Azimjonova shahzodaning bog‘ tuzish san‘atini yaxshi bilgani haqida mulohaza yuritar ekan, uning ayni sohadagi faoliyatini yuqori baholagan. “Boburnoma”da shahzodaning yana bir bog‘ solganligi haqida: “Ul mahalda xalifaning bog‘ining o‘runida bir kichikroq boqcha edi. Ulug‘bek Mirzo solib edi, langar yo‘sunliq. Agarchi daraxt va yig‘ochi qolmaydur edi, vale muhavvatasi bor edi”, -deb yozadi Bobur Mirzo. Manbada uning nomi berilmasa-da, kichikroq bo‘lganligi va qarovsiz qolganini taxmin qilish mumkin.

Xulosa. Temuriylar davrida bunyod etilgan bog‘lar Sharq me‘morchiligi va bog‘dorchilik san‘atining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Amir Temur hamda uning avlodlari tomonidan qurdirilgan bog‘lar nafaqat hukmdorlarning dam olish maskani, balki davlat qudrati, nafis did va yuksak madaniyat ramzi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bu bog‘larda tabiat, suv inshootlari va me‘moriy unsurlar uyg‘un holda mujassamlashtirilgan bo‘lib, ular o‘z davrining estetik qarashlarini yaqqol namoyon etadi.

Temuriylar barpo etgan bog‘lar Samarqand, Hirot va boshqa shaharlarning obodonchiligi hamda madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan. Ushbu bog‘lar ilm-fan, adabiyot va san‘at ahli yig‘iladigan maskan sifatida ham xizmat qilgan. Ayniqsa, ularning rejalashtirilishi va bezatilishidagi o‘ziga xos uslublar keyingi davr Sharq bog‘sozlik an‘analarining rivojlanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan. Shuningdek, Temuriylar davridagi bog‘sozlik an‘analari Zahiriddin Muhammad Bobur orqali Hindiston hududida davom ettirilib, Boburiylar me‘morchiligida yangi bosqichga ko‘tarilgan. Bu esa Temuriylar madaniy merosining naqadar keng hududlarga ta‘sir ko‘rsatganini isbotlaydi. Bugungi kunda Temuriylar bunyod etgan bog‘lar tarixiy va madaniy meros sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularni o‘rganish, asrash va kelajak avlodga yetkazish muhim vazifalardan biridir. Shu sababli Temuriylar bog‘lari xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosini aks ettiruvchi bebaho yodgorliklar sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Пугаченкова Г.А. “Сагово-парковое искусство Средней Азии в эпоху Тимура ва Тимиридов. – С.143-167.

2. Azimjonova S. “К истории Ферганы второй половины XV. – С. 92-93.
3. Alimov O‘. “O‘rta asirlarda Movarounnahrda bog‘dorchilik xo‘jaligi tarixi”. – В.135.
4. Qudratullayev H. “Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi”. – В.432.
5. Pugachenkova G.A. “Temurning me‘moriy merosi”. – В.14.
6. Hesen bey Rumlu. “Ehseut-tevarix”. – S.26-27.
7. Ibn Arabshoh. “Ajoyib al-maqdur....” – В.87.
8. Вамбери X. “Movarounnahr uхud Вухоро tarixi”. – В.47.
9. Bobur. “Boburnoma”. – В.141.